

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-5/1
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

To'ychiyev SH.SH. Qashqadaryo viloyati sug'oriladigan yerlarida almashlab ekishning afzalligi	208
To'xtayev Sh.X., Xayrullayev M.F., Norova Sh.Sh., Xaitova L.B. Buxoro viloyati sharoitida bug'doyning zamburug'li kasalliklari tarqalishi, zarari va ularga qarshi kurash choralari	211
Tozaboyeva S.M. Raqamli texnologiyalar yordamida yer kadastrini yuritishning afzalliklari va istiqbollari	214
Urazmetov K.K., Yakubova N.B. Asosiy va takroriy ko'chat usulida ekilgan sholi navlarining o'suv davri	216
Zakirov X.X., Zayirova D.M. Taqir o'tloqi tuproqlarda pomidor yetishtirishda azotli o'g'itlar meyor	219
Zokirov X.X., Qodirov M.S. Xar xil me'yordagi azotli o'g'itlarning ingichka tolali paxta hosiliga ta'siri	222
Zokirov X.X. Taqir – o'tloq tuproqlari sharoitida xar xil me'yordagi azotli o'g'itlarning ingichka tolali paxtaning o'sib rivojlanishi va hosiliga ta'siri	224
Авлиякулов Н.Э. Конкурс нав синаш тажрибасида ингичка толали ғўзанинг тезпишар, серхосил ва тола сифатига чидамли янги навини яратиш	227
Амантурдиев И.Г. Ғўзанинг F ₁ -F ₂ дурагайларида тола сифати белгилари орасида коррелятив боғлиқликлар	230
Вафоева М.Б., Абдуазимов А.М. Кузги буғдой озикланиш тизимининг иқтисодий самарадорликка таъсири	233
Норов Б.Н., Суяров А.А. Хориждан келтирилган ғўза навида чатиштириш ишлари ва таҳлил натижалари	236
Нурматов Ш.Н., Рахимов Ж.С. Дефляцияга учраган оч тусли бўз тупроқлар шароитида шамол таъсирининг коэффициенти	238
Раббимов Ф.А. Палецкий черкезининг эфемер ва эфемероид турлар ривожланиш ва ҳосидорлик кўрсаткичларига таъсири	241
Ражабов З.П. Хорижий тажриба, қишлоқ хўжалигига илмий ёндашув	244
Расулов И.М., Дўстмуродова Х.Х. Гулкарамнинг биологик хусусиятлари, етиштириш технологияси, ва инсон саломатлигида аҳамияти	247
М.Б.Тўхтамуродова, У.И.Рузметов Тўмтоқ баргли сано (<i>Cassia obovata</i> Collad) ўсимлиги ўсиши ва ривожланишига қўлланилган минерал ўғитларнинг таъсири	252
Ҳаёнбоев Ж.Ш., Ҳамдамов Ж.У., Исмадуллаев З.Ю., Тошматов С.Д. Фарғона вилояти тупроқ иқлим шароитига мос бўлган соя навларининг биометрик таҳлил натижалари	255
Шокиров Б.Қ. Иситилмайдиган плёнкали иссиқхоналар ва экинлар етиштиришда интенсив усулларда фойдаланиш	257

ТЕХНИКА FANLARI

Sayidova N.K., Karimova B.I. Interpolatsion modellarda nyuton ko'phadlarining samaradorligi va xatoliklarni raqamli baholash usullari	261
Курбанова М.А. Разработка огнестойких материалов с антипиренами, применяемые для деревянных конструкций в жилых помещениях	264
Мавланов Т.М., Тошматов Э.С., Ярашов Ж.А., Махмараимова Г.Б. Методика определения поверхностной силы на оболочечной конструкции	269
Тажибаев Г.Г. Состав и технология высушивания плода лекарственного растения «каперсы колючего – <i>Carparis spinosa</i> L.» и их исследование	272

TIBBIYOT FANLARI

Avliyakulova Sh.M. Geni o'zgartirilgan mahsulotlarning inson salomatligidagi o'rni	276
Saydaliyeva Z.R. Qo'zg'aluvchan muskullarning qisqarish mexanizmi	279
Yarmuhammedov J.M., Xaitova L.B., Norova Sh.Sh. Asab tizimi kasalliklarini davolash uchun tavsiya etiladigan dorivor o'simliklar va yig'malar	282
Yuldoshov L.T., Yarmuhammedov J.M., Choriyeva V.T. Yong'oq (Junglas regia) o'simliginin biologik faol moddalari va farmasevtik biotexnologiyasi	285
Хошимова Н.Ш. МРТ-визуализация опухолей полости рта	288
Юлдашев Н.Б. Бирламчи ОИВ-инфекцияси мавжуд шахслар цитокин статуси кўрсаткичларининг таҳлили	291

kisloroddan foydalanishning kamroq koeffitsienti qayd qilinadi. Miokardning qisqarish qobiliyati va yurak qisqarishlari soni oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lippincott, W.W. (2016). *Lippincott's Illustrated Reviews: Physiology* (6th ed.). Wolters Kluwer. Mushak tizimining anatomiyasi va fiziologiyasini ko'plab illyustratsiyaligi.
2. Карпман В.Л, Белоцерковский З.Б. Гудков И.А. «Тесты в спортивной медицине.» Москва, Мир.1991-624 ст.
3. Widmaier, E.P., Raff, H., & Strang, K.T. (2019). *Vander's Human Physiology: The Mechanisms of Body Function* (15th ed.). McGraw-Hill Education. Mushaklarning faoliyati va ularning qisqarishi jarayonining tushuntirilishi
4. McArdle, W.D., Katch, F.I., & Katch, V.L. (2015). *Exercise Physiology: Nutrition, Energy, and Human Performance* (8th ed.). Wolters Kluwer. Mushaklarning qisqarish mexanizmi, energiya ishlab chiqarish va mushaklarning ishlashi

UO'K 616

ASAB TIZIMI KASALLIKLARINI DAVOLASH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR VA YIG'MALAR

J.M.Yarmuhammedov, o'qituvchi, Buxoro Davlat Universitet, Buxoro

L.B.Xaitova, talaba, Buxoro Davlat Universitet, Buxoro

Sh.Sh.Norova, talaba, Buxoro Davlat Universitet, Buxoro

Annotatsiya. Hozirgi davrda dorivor o'simliklarni turi ko'payib, xalq tibbiyoti shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan. Ilmiy tabobatda ishlatiladigan dorivor o'simliklarning aksariyati asrlar davomida xalq ishlatib kelgan o'simliklardan olingan. Ushbu maqolada asab tizimi kasalliklari davolash uchun tavsiya etiladigan dorivor o'simliklarning biologik tasnifi, kimyoviy tarkibi, ishlatilishi va ulardan tayyorlangan dorivor yig'malar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Lavanda, arslonquyruq, limono't, valeriana, yasmin, ishlatilishi, flavonoid, efir moyi, saponinlar, taninlar, kumarinlar, asab tizimi

Аннотация. В настоящее время вид лекарственных растений увеличился, а народная медицина обогатилась целебными растениями. Большинство лекарственных растений, используемых в научной медицине, получены из растений, которые веками использовались в народе. В этой статье представлена биологическая классификация лекарственных растений, рекомендуемых для лечения заболеваний нервной системы, химический состав, применение и информация о лекарственных сборах, приготовленных из них.

Ключевые слова. Лаванда, львиный хвост, лемонграсс, Валериана, Жасмин, использование, флавоноиды, эфирное масло, сапонины, дубильные вещества, кумарины, нервная система.

Abstract. In the current period, the variety of medicinal plants has increased, and folk medicine is enriched with healing plants. Most of the medicinal plants used in scientific medicine are derived from plants that have been used by the people for centuries. This article contains information about the biological classification of medicinal plants recommended for the treatment of nervous system disease, chemical composition, use and medicinal assemblies made from them.

Keywords. Lavender, Maple, lemonade, valeriana, Jasmine, used, flavonoid, essential oil, saponins, tannins, coumarins, nervous system.

Kirish. Dunyodagi barcha xalqlar xastaliklarni davolashda xalq tabobati usullarini ham qo'llaydilar. Ba'zi joylardagi an'anaviy bo'lib qolgan qadimgi davolash sirlari avloddan avlodga yuz yillar davomida o'tib kelmoqda. Xalq tabobatining ko'pgina usullari bebahodir. Ba'zilarining foydasi esa unchalik ko'p emas yoki umuman xavfli va zararli bo'lishi mumkin. Xalq tabobati usullaridan ham zamonaviy dorilar singari ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.10.2018 yildagi PQ-3968-son "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori qabul qilingan. Ushbu maqola qarorlarni ijrosini ta'minlash uchun ma'lum darajada xizmat qiladi.[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2020 yildagi PQ-4668-son "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi

qarorlari va mazkur sohaga doir boshqa me'yoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. [2]

Asosiy qism. Lavanda – *Lavandula officinalis* L. *Lamiaceae* – yasnotkaguldoshlar oilasiga mansub. Doim yashil, bo'yi 85-90 sm ga yetadigan, o'ziga xos xushbo'y hidli chala buta. Ildizi o'q ildiz, tepa qismida yaxshi rivojlangan, yon ildizlari tarmoqlangan. Gul hosil qiluvchi novdalari 4 qirrali, pastki qismi serbarg. Gullari tik to'pgulni hosil qiladi. [3]

Kimyoviy tarkibi. Lavanda tarkibida efir moylari (linalaol va uning murakkab efirlari, geraniol) bor. Flavonoidlardan apigenin, lutiolin va kvertsitin moddalari, fenol birikmalar, kumarinlar va taninlar uchraydi. [4]

Ishlatilishi. Lavanda yog'i tinchlantiruvchi hidga ega bo'lib, stress va tashvish muammoli holatlarda ishlatilishi mumkin. U bosh og'rig'i, asabiy taranglik va migren uchun ishlatilishi mumkin. Efir moyi linastetat surtma dorilar va kuygan joylarni davolashda ishlatiladigan "Pavian" aerizoli tarkibiga kiradi. Atir-upa sanpatida keng ishlatiladi.

Arslonquyruq (*Leonurus* L.) — juda keng tarqalgan dorivor o'simlik. O'rta Osiyoda dengiz sathidan 3500 m balandlikdagi uchraydi. Ushbu turkum vakillari poyasi bir nechta, tiko'suvchi, shoxlangan, to'rt qirrali. Barglari tuxumsimon bo'lib, besh bo'lakka qirqilgan, yuqoridagilari cho'ziq ellipssimon, uch bo'lakka qirqilgan bo'lib, poyasi bilan shoxlarida bandi yordamida qarama-qarshi o'rtnashgan. [5]

Kimyoviy tarkibi: o'simlikda alkaloidlar - leonurin, leonuridin, staxidrin, xolin, saponinlar, taninlar, achchiq moddalar, efir moylari, steroid va flavonoid glikozidlar, iridoidlar, rutin, vitamin C, karotin kabi moddalar uchraydi. O'simlik urug'larida lektin moddasi mavjud, K, Ca, Mo tuzlariga boydir.

Ishlatilishi. Xalq tibbiyotida arslonquyruq choyi asab kasalliklarida, uyquni keltiruvchi, yallig'lanishga qarshi, terlatuvchi, surgi dori sifatida tavsiya etiladi. Bundan tashqari o'simlik siydik pufagi kasalliklarida, yo'tallarda, glaukomada ishlatiladi. Ilmiy tibbiyotda arslonquyruq asosan tinchlantiruvchi vosita sifatida gipertoniya kasalligida, nevrozlarda ishlatiladi. [6]

Melissa officinalis L da efir moylari tarkibiga va komponent tarkibiga o'sish sharoitlarining ta'sirini o'rganishga bag'ishlagan. *Melissa officinalis* L. ning o'rganilgan gullari va barglari nafaqat ekstraktele qilingan efir moyi miqdori, balki tarkibiy qismlarning sifatli tarkibida ham farqlanganini kuzatgan. [7].

Melissa officinalis L. – Dorivor limon o't-yasnotkadoshlar – *Lamiaceae* (labguldoshlar – *Labiatae*) oilasiga kiradi. *Melissa* (L) turkumi birinchi marta 1753-yilda K. Linney tomonidan aniqlanib fanga kiritilgan holda. *Melissa officinalis* L 2000-yildan ortiq vaqt davomida dunyoning ko'plab mamlakatlarida xalq va ilmiy tabobatda muvaffaqiyatli qo'llanilgan

Kimyoviy tarkibi. Yer ustki qismi tarkibida 0,01-0,33% efir moyi, C vitamini, karotin, fenilkarbon kislotalar (kofe, xlorogen, rozmarin, ferul, protokotex va boshqalar), triterpenlar, flavonoidlar (lyuteolin-7-glikozid va boshqalar), 5-10% oshlovchi va boshqa moddalar, urug'ida 20-27% yog' bor.

Ishlatilishi. Xalq tabobatida limono't bilan nevroz, bronxial astma, ayollardagi toksikozlik, klimaks, yurak urushining buzilishi va boshqa kasalliklar davolanadi..Limonot (limon balzami yoki melissa) – dorivor o'simlik bo'lib, qadimdan tibbiyotda keng qo'llaniladi.. Limono't asabiylik, uyqusizlik va stressni kamaytiradi.

Dorivor valeriana – *Valeriana officinalis* L, valerianadoshlar (*Valerianaceae*) oilasiga mansub, ko'p yillik o't o'simlik, ildizpoyasi qisqa va ko'pgina maydaildizchalar bilan qoplangan bo'lib, yer ostida tik joylashgan. Bargi oddiy, toq patli ajralgan, 4-11 juft sigmentlar (bo'lakchalar)dan iborat.

Kimyoviy tarkibi. Valeriana o'simligini ildizi va ildizpoyasi tarkibida 0.5-2% efir moyi va sof holda izovalerian kislotasi bo'ladi. Mahsulot tarkibida efir moyidan tashqari 0.01% ga yaqin alkaloidlar (xatinin, valerin, aktenidin va boshqalar), oshlovchi moddalar, sanoninlar, qandlar, olma, sirka va boshqa kislotalar bo'ladi.

Ishlatilishi. Tibbiy amaliyotda valeriana yumshoq sedativ, spazmolitik va safro haydash xususiyatlari uchun qadrlanadi. Unga asoslangan dorilar dunyoning ko'plab mamlakatlarida uyqusizlik, asabiy qo'zg'alish, yurak-qon tomir tizimining nevrozi, astma, OIT va qalqonsimon bez

kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Xalq tabobatida o'simlik oshqozon, tinchlantiruvchi va siydik haydovchi choylarning tarkibiy qismi sifatida qaynatmalar, damlamalar, kukunlar, ekstraktlar shaklida qo'llaniladi.

Tajriba va natijalar



1-rasm. – *Lavandula officinalis* L.



2-rasm. (*Leonurus* L.)



3-rasm. *Melissa officinalis* L.



4-rasm. *Valeriana officinalis* L.



5-rasm. O'simliklar aralashmasi

Ushbu jadvalda o'simlik nomi va miqdori keltirilgan.

1-jadval

№	O'simlik nomi	Ishlatiladigan qismi	Miqdori (gr)
1	Lavanda	Guli	1.25
2	Limono't	Yer ustki qismi	1.25
3	Arslonquyruq	Barglari	1.25
4	Valeriana	Ildizi	1.25

Tayyorlanishi. Olingan barcha o'simlik yig'malar aralashmasidan 1.25 grdan olib, uning ustiga 500 ml qaynoq suv quyiladi. Ovqat iste'mol qilishdan 20 daqiqa oldin ichiladi. Tayyorlangan damlamani 3 qismga bo'lib, kun davomida ichish tavsiya etiladi. Ushbu dorivor damlama asab tizimini tichlantirishda va stresni oldini olishga yordam beradi.

Xulosa. Hozirgi davrda dorivor o'simliklarni turi ko'payib, xalq tibbiyoti shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan. Ilmiy tabobatda ishlatiladigan dorivor o'simliklarning aksariyati asrlar davomida xalq ishlatib kelgan o'simliklardan olingan. Ushbu maqolada asab tizimi kasalliklari davolash uchun tavsiya etiladigan dorivor o'simliklarning biologik tasnifi, kimyoviy tarkibi, ishlatilishi va ulardan tayyorlangan dorivor yig'malar haqida ma'lumotlar keltirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.10.2018 yildagi PQ-3968-son "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari" to'g'risidagi –PQ-3968-son qarori.- Toshkent, 2018.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2020 yildagi PQ-4668-son "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi –PQ-4668-son qarori. – Toshkent, 2020.
- 3.B.Y.To'xtayev, E.T.Ahmedov (2021) Dorivor o'simliklarni o'stirish va yetishtirish, Tasvir Toshkent-2021.
- 4.M.A.Sobirov, N.T.Farmonova, Z.S.Saloxiddinov, M.Z.Rizamuhammedova (2019), Dorivor o'simliklar atlas, Toshkent-Noshir-2019.
- 5.O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, S.Azimboyev, (2019) Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar, Toshkent Iqtisod-Moliya-2018.
6. Baxtiyarovna, A. U., & Kuchkarovich, S. A. (2025). Arslonquyruq o'simlik yer ustki qismi xomashyosidan quruq ekstrakt olish va uni tahlili. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 5(3), 48-53.
7. Tursunova, S. (2024). Melissa officinalis L. o'simligi o'sish sharoitlarining efir moylari miqdoriga va ularning komponent tarkibiga ta'sirini o'rganish. *News of the NUUZ*, 3(3.1), 156-159.
8. Asqarov, I. R., & qizi Obidova, S. A. Dorivor valeriana officinalis o'simligining kimyoviy tarkibi va xalq tabobatida qo'llanilishi.

UO'K: 582.3.522.4:

YONG'OQ (JUNGLAS REGIA) O'SIMLIGINING BIOLOGIK FAOL MODDALARI VA FARMASEVTIK BIOTEXNOLOGIYASI

L.T.Yuldoshov, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

J.M.Yarmuhammedov, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

V.T.Choriyeva, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Yong'oq (Juglans regia) – yuksak oziqaviy qiymatga ega bo'lgan daraxt. Uning biologik xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, yong'oq kuchli moslashuvchanlikka ega bo'lib, turli agroekologik sharoitlarda o'sishi mumkin. Uning ildiz tizimi chuqur va keng tarqalgan bo'lib, tuproqni boyitishda ham muhim rol o'ynaydi. Yong'oqning changlanishi asosan shamol yordamida sodir bo'ladi, bu esa genetik xilma-xillikni ta'minlaydi va adaptiv imkoniyatlarini kengaytiradi. Yong'oq tarkibida omega-3 yog' kislotalari, antioksidantlar, vitaminlar va minerallar mavjud bo'lib, u miya faoliyatini yaxshilash, yurak salomatligini qo'llab-quvvatlash va immunitetni mustahkamlashga yordam beradi. Yong'oq muntazam iste'mol qilinganda xotira va diqqatni oshiradi, qon bosimini me'yorda ushlab turadi va ovqat hazm qilish tizimini yaxshilaydi. Bundan tashqari, yong'oq tarkibidagi E vitamini va polifenollar teri sog'lig'ini saqlash va oksidlanish jarayonlarini kamaytirishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *Yong'oq(Juglans regia L.), endokarpiy, polifenollar, linoleik Omega-6, Omega 3,vitamin,flavanoidlar.*

Аннотация. *Грецкий орех (Juglans regia) — дерево с высокой пищевой ценностью. Его биологические особенности свидетельствуют о высокой адаптивности, благодаря чему он может расти в различных агроэкологических условиях. Корневая система ореха глубокая и разветвлённая, что играет важную роль в обогащении почвы. Опыление растения происходит преимущественно с помощью ветра, что способствует генетическому разнообразию и расширяет адаптивные возможности. В состав грецкого ореха входят омега-3 жирные кислоты, антиоксиданты, витамины и минералы, которые способствуют улучшению мозговой активности, поддержанию здоровья сердца и укреплению иммунной системы. При регулярном употреблении грецкий орех улучшает память и концентрацию,*